

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RADJABOV AKMAL ABDUXALIQOVICH

**SPORTCHILAR FAOLIYATIDA STRESSLI KECHINMALAR NAMOYON
BO‘LISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05–Ijtimoiy psixologiya.Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
psychological Sciences**

Radjabov Akmal Abduxaliqovich

Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-
psixologik xususiyatlari.....3

Раджабов Акмал Абдухаликович

Социально-психологические особенности проявления стрессовых переживаний
в деятельности спортсменов.....23

Radjabov Akhmal

Socio-psychological characteristics of the manifestation of stressful experiences in
the activities of athletes.....47

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Spisok o'publikovannyyx rabot
List of published works.....51

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RADJABOV AKMAL ABDUXALIQOVICH

**SPORTCHILAR FAOLIYATIDA STRESSLI KECHINMALAR NAMOYON
BO‘LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05–Ijtimoiy psixologiya.Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/P315 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universiteda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jabborov Ismoil Azimovich

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Hayitov Oybek Eshboyevich

psixologiya fanlari doktori, professor

Baratov Xumoyun Sharifovich

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.30/03.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27-uy. Tel.: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi
(2025-yil «___» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori, professor

N.B.Atabaeva

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
psixologiya fanlari doktori,
professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sport turlarini ommaviylashtirish va uning keng targ'ib qilish dunyo mamlakatlari ijtimoiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, jahonda bolalar va o'smirlar sportini rivojlantirish, yoshlarni sportga keng jalb etish, ularda sport ko'nikma va malakalarini shakllantirish, sportchilar faoliyatida yuzaga keladigan stressli kechinmalarni to'g'ri baholash va musobaqa jarayonidagi salbiy ta'sirini aniqlash, sport faoliyatini muvofaqqiyatli tashkil etish uchun salbiy emotsional holatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatli masalalardir. "National Center for Biotextnology information" ma'lumotlariga ko'ra, sportchilar orasida stressning eng keng tarqalgan sabablari sifatida: boshqalarning hukmidan qo'rqish - 10% ni, o'zida amaliy bo'lmagan umidlar borligi - 35% ni, murabbiyning bosimi - 34% ni, ijobiy natijalarni kutish - 21% ni va ota-ona bosimini stressga olib keladigan omillar sifatida qayd etilgan.¹ Bu borada sportni inson ruhiy barqarorligi, jismoniy kamolotidagi o'rnini ta'minlash, sport faoliyatini muvofaqqiyatli tashkil etish uchun salbiy emotsional holatlarni bartaraf etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida sportchilarning musobaqa jarayonida stressli holatlarga tushib qolishi, ushbu salbiy emotsional holatni yengish ko'nikmalarini shakllantirish, sportchilar faoliyatida stressli holatlarni keltirib chiqaruvchi tashqi va ichki omillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilib, tizimli yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Bu borada sportchi shaxsini psixologik rivojlantirishga ta'sir etadigan barcha kognitiv jarayonlar, individual-psixologik xususiyatlar, hissiy-emotsional holatlar va ularning salbiy jihatlari bilan bog'liq muammolar: nufuzli sport o'yinlari, milliy va olimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarda stressli kechinmalarni yuzaga kelishini ta'minlovchi omillarni aniqlash, mazkur muammoni alohida ilmiy-amaliy tadqiq etishga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda, o'zining dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosati darajasida qaralib, uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish bugungi zamonning talabi darajasiga aylanib, zaruriy-me'yoriy asoslari yaratildi: «yoshlar o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish, olimpiya o'yinlariga kiritilgan jamoaviy (futbol va boshqa sport turlari) sport turlarini rivojlantirish, ushbu sport turlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlash»² ustuvor vazifa etib belgilanib, amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muhim asos bo'la oladi.

2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-

¹ <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6749249/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/5841063>

son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-son «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlar, 2022-yil 18-fevraldagi PQ-136-son «Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi «2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishni tasdiqlash to'g'risida»gi VM-118-sonli Qarori, shuningdek, ushbu foaliyat tizimiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot O'zbekiston Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sportchilar faoliyatida stressning namayon bo'lishi va stress holatini keltirib chiqaruvchi omillar bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. O'zbekiston psixolog olimlaridan R.A.Abdurasulov, Sh.R.Barotov, Z.H.Fayziev, Z.E.Gazieva, Z.G.Gapparov, N.Z.Ismoilova, L.U.Inagamova, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, D.U.Mamadiyorova D.G'.Muxamedova, A.M.Nazarov, Z.T.Nishonova, N.S.Safoev, R.S.Samarov, B.N.Sirliyev, D.S.Qarshiyeva, E.G'.G'oziev, G'.B.Shoumarov va boshqalarning tadqiqotlarida stress fenomeni, uning namoyon bo'lish sabablari, oqibatlarini, keltirib chiqaruvchi muhim omillar va stressli kechinmalarni ilmiy-nazariy o'rganish borasida muayyan darajada izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.A.Andreyeva, V.A.Bodrov, A.P.Katunin, E.V.Kuzmina, B.B.Melichovskiy, B.G.Mesheryakov, Ye.S.Mironov, V.I.Petrushin, A.D.Potapov, V.A.Ponomarenko, S.B.Subbotin, B.X.Vardanyan, P.B.Zilberman va boshqalarning sport psixologiyasi sohasida olib borgan zamonaviy tadqiqotlarida stress holati, uning sportchilar faoliyatiga ta'siri, stressli kechinmalar oqibatlarini o'rganish muammolariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xorij tadqiqotchilari D.Amirxan, E.Fromm, V.Cennon, A.S.Puni, G.Sele, R.S.Wensberg, Y. L. Xaninlarning stress terminining va uning ilmiy talqini, sportchilar faoliyatida paydo bo'ladigan stressli kechinmalar, ularni keltirib chiqaruvchi omillar hamda ushbu holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari masalalari ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar jarayonida ma'lum natijalarga erishilgan bo'lsa-da, biroq sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularni keltirib chiqaruvchi omillarni tadqiq etish yuzasidan maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va bartaraf etishning uslubiy ta'minotini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sportchilar faoliyatida yuzaga keladigan stressli kechinmalarda stressor vazifasini o'tovchi omillarni aniqlashning psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi bilan bog'liq integrativ blokli-chizmani yaratish;

sportchilarda musobaqa jarayonidagi stressli kechinmalarni bartaraf etuvchi ijtimoiy-psixologik treninglar dasturini tayyorlash va uning samaradorligini aniqlash;

sport faoliyatida namoyon bo'ladigan stressli holatlarni korreksiyalashga mo'ljallangan koping-strategiya dasturini tayyorlab, sportchilardagi stressli kechinmalarni bartaraf etishning optimal tizimini yaratish.

sport faoliyatida sportchi shaxsiga xos stressli kechinmalar ta'sirini o'rganib, uni muvafaqqiyatli yengishning ijtimoiy-psixologik modelini yaratish;

Tadqiqotning ob'ekti sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish jarayoni olingan bo'lib, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi Bolalar va o'smirlar sport maktablarida tahsil olayotgan jami 422 (Boshlang'ich tayyorlov guruhlaridan 215, Oliy sport mahorati guruhlaridan 207 nafar) sportchi yoshlar tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularni keltirib chiqaruvchi omillarni tadqiq etish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish, sportchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish metodlari, shuningdek, Dj. Teylorning «Xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasi, Yu.Xaninning «Sportchilarning musobaqaga psixologik tayyorgarligini aniqlash» metodikasi, G.Yu.Ayzenkning «Shaxsning individual-tipologik xususiyatlarini aniqlash» testi, A.M. Jabborov, A.A. Radjabovlarning «Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik» so'rovnomasi (IPS) sidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K. Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti, faktorli va diskriminant analiz usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sportchilar faoliyatida yuzaga keladigan stressli kechinmalarni psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasiga mo'ljallangan metodikalar tizimi

tayyorlanib, stressor vazifasini o'tovchi (ichki va tashqi) omillarni aniqlashning integrativ blokli-chizmasi ishlab chiqilgan;

sportchilardagi stressli kechinmalarning psixokorreksiyasida boshlang'ich tayyorlov guruhi vakillarida estroversiya-introversiyaning dual vektorlarini neyrotizmga bog'liq holda darajaviy ifodalanishiga asoslanib shaxs individual-psixologik xususiyatlari usutuvor harakterga ega ekanligi dalillangan;

sportchilarning musobaqaga psixik tayyorgarligini aniqlashda musobaqada emotsional barqarorlik, faoliyatda o'zini boshqarish, sport motivatsiyasi, stabillik-to'siqlarga bardoshlilik, stress faktorlariga ta'sirchanlikning boshlang'ich tayyorlov guruhi va oliy sport mahorati guruhi vakillarida darajaviy ifodalanishiga asoslanib, shaxs psixoemosional holati muhim omil ekanligi dalillangan;

sportchilar faoliyatida stressli kechinmalarni muvaffaqiyatli engishning ijtimoiy-psixologik modeli musobaqadan oldingi barqarorlikni ta'minlash, musobaqa jarayonida o'z kuchini nazorat qilish, musobaqadan keyingi zo'riqlashlarni bartaraf etish muhimligiga ko'ra "fiziologik", "ijtimoiy", "psixologik" bilan bog'liq stressorlarga qarshi kurashish blokini kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sportchilar faoliyatida yuzaga keladigan stressli kechinmalarning ob'ektiv va sub'ektiv omillari aniqlanib, ularni bartaraf etish usullari tavsiya qilingan va amaliyotda aprotatsiya qilingan;

sport faoliyatida yuzaga keladigan stressli kechinmalarni tezkorlik bilan aniqlashga imkon beruvchi psixodiagnostik metodikalar to'plami takomillashtirilib, amaliyotda joriy etilgan;

sportchi shaxsiga xos stressli kechinmalar ta'siri o'rganilib, uni yengib o'tish (koping strategiya)ning samarali usullari amaliyotda qollashga tavsiya etilgan;

sportchilarda stress holatiga moyillikni kamaytirishga yo'naltirilgan psixodiagnostik va psixokorreksion dastur ishlab chiqilib, aprotatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ma'lumotlarning ishonchliligi, avvalo tadqiqotda qatnashgan sinalluvchilarning mos ravishda tanlab olinganligi, olingan amaliy natijalarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, jahon psixologiyasi tajribalarida ko'p marotaba o'tkazilgan metodika va so'rovnomalardan foydalanganligi, olingan amaliy natijalar nazariy tomondan asoslab berilganligi, amaliy natijalar miqdoriy ko'rsatkichlarining matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi hamda jamoatchilik o'rtasida olingan natijalar yetakchi olimlar ishtirokida muhokama qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligi va tadqiqot metodlarining ishonchliligidan kelib chiqadi, shuningdek, empirik tadqiqot dasturini ishlab chiqish usullari, mazmuniy-statistik tahlil, sportchilarning stress holatlari qanday ijtimoiy sharoitlarda, qanday psixologik xususiyatlar fonida yuzaga kelishi va qanday shakllarda namoyon bo'lishi chuqur tahlil qilinadi, sport psixologiyasining nazariy asoslarini boyitadi, stressli kechinmalarni ijtimoiy-psixologik kontekstda tahlil qilishga yangi yondashuvlarni ilgari surishga xizmat qilib, keyingi izlanishlar doirasida qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan va qoʻllangan psixologik tashxis vositalari, psixologik trening mashgʻulotlari tizimidan «Sport psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Psixokorreksiya» fanlari boʻyicha nazariy va amaliy mashgʻulotlar oʻtkazish, oʻquv qoʻllanma va darsliklar tayyorlash, psixologlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari hamda, sport maktablari va oliy taʼlim muassasalari uchun maxsus psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish samaradorligini taʼminlashda samarali qoʻllanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon boʻlishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari»ni tadqiq etish asosida:

sportchilar faoliyatida yuzaga keladigan stressli kechinmalarni psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasiga moʻljallangan metodikalar tizimi tayyorlanib, stressor vazifasini oʻtovchi (ichki va tashqi) omillarni aniqlashning integrativ blokli-chizmasi ishlab chiqilganligiga oid maʼlumotlar Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM212-sonli buyrugʻi bilan «Sport psixologiyasi» moduli mazmuniga sindirilgan (Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM212a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada sportchilar faoliyatida yuzaga keladigan stressli kechinmalarni psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasiga moʻljallangan metodikalar tizimini tayyorlash hamda stressor vazifasini oʻtovchi (ichki va tashqi) omillarni aniqlashning integrativ blokli-chizmasi yaratilgan;

sportchilardagi stressli kechinmalarning psixokorreksiyasida boshlangʻich tayyorlov guruhi vakillarida estreversiya-introversiyaning dual vektorlarini neyrotizmga bogʻliq holda darajaviy ifodalanishiga asoslanib shaxs individual-psixologik xususiyatlari usutuvor harakterga ega ekanligi dalillangan maʼlumotlar Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM212-sonli buyrugʻi bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduli mazmuniga sindirilgan (Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM212a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada musobaqa jarayonidagi stressli kechinmalarni bartaraf etuvchi ijtimoiy-psixologik treninglar dasturini tayyorlab, uning samaradorligi aniqlangan;

sportchilarning musobaqaga psixik tayyorgarligini aniqlashda musobaqada emotsional barqarorlik, faoliyatda oʻzini boshqarish, sport motivatsiyasi, stabillik-toʻsiqlarga bardoshlilik, stress faktorlariga taʼsirchanlikning boshlangʻich tayyorlov guruhi va oliy sport mahorati guruhi vakillarida darajaviy ifodalanishiga asoslanib, shaxs psixoemosional holati muhim omil ekanligi dalillangan Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM212-sonli buyrugʻi bilan «Sport psixologiyasi» moduli mazmuniga sindirilgan (Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM212a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada sport faoliyatida stress va stressogen holatlarni korreksiyalashga moʻljallangan

koping-strategiya dasturini tayyorlab, sportchilarda stressli kechinmalarni samarali bartaraf etishning optimal tizimi yaratilgan;

sportchilar faoliyatida stressli kechinmalarni muvaffaqiyatli engishning ijtimoiy-psixologik modeli musobaqadan oldingi barqarorlikni ta'minlash, musobaqa jarayonida o'z kuchini nazorat qilish, musobaqadan keyingi zo'riqlashlarni bartaraf etish muhimligiga ko'ra "fiziologik", "ijtimoiy", "psixologik" bilan bog'liq stressorlarga qarshi kurashish blokini kiritish asosida takomillashtirilganligiga oid ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM212-sonli buyrug'i bilan «Psixokorreksiya» moduli mazmuniga sindirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM212a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sport faoliyatida sportchi shaxsiga xos stressli kechinmalar ta'sirini o'rganib, uni muvaffaqiyatli engishning (koping strategiya) ijtimoiy-psixologik modeli yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika konferensiyasi materiallarida muhokama etilgan

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, uning asosiy matni 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek ob'ekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiya ishining «**Psixologiyada stress muammosining nazariy-metodologik o'rganilishi**» deb nomlangan birinchi bobida xorijlik hamda mamlakatimiz psixolog olimlarining mavzuga oid ilmiy qarashlari umumlashtirilgan, asosan, stressning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlar va psixologik tahlilga bag'ishlangan tushunchalar va kontseptual asoslar muhokama qilinadi. Bu bobda stressning psixologik va fiziologik ta'rifi, uning turlari, va stressni o'rganishda qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlar haqida batafsil ma'lumotlar, stressli kechinmalarni keltirib chiqaruvchi omillar, uni oldini olish hamda bartaraf etish, stressning namayon bo'lishi va stress holatini keltirib chiqaruvchi omillar muammosining nazariy-metodologik asoslari tahlillari berilgan.

Dissertatsiyaning «**Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining empirik tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan

muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bu bobida qo'llanilgan nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'lanilgan metodikalarning umumiy tavsifi, o'tkazilish tartibi, bosqichlari va olingan natijalarning empirik tahlili va korrelyatsion bog'lanishlar o'z aksini topgan.

Dastlabki tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib biz tomonimizdan ishlab chiqilgan «Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik o'rganish» so'rovnoma(IPS)si orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

1-jadval

«Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik o'rganish» so'rovnoma(IPS)si natijalari, n=422

Stress darajasi	Respondentlar	n ₁ , n ₂	O'rtacha Qiymat (M)	Standart og'ish	t	p
Yuqori daraja	BTG	215	37,6	4,2	-2,6	0,05
	OSMG	207	24,4	4,4		
O'rta daraja	BTG	215	12,8	2,4	-1,8	0,20
	OSMG	207	11,8	2,2		
Quyi daraja	BTG	215	8,9	1,1	-1,2	0,46
	OSMG	207	7,8	1,2		

Izoh: *p <0,05, **-p <0,01, ***-p <0,001.

“Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik o'rganish” so'rovnoma(IPS)si bo'yicha olingan natijalarga ko'ra, stressning quyi darajasi bo'yicha olingan statistik ma'lumotlar OSMG va BTG o'rtasida ishonchli farqlar mavjud emasligini ifodaladi. Stressning o'rta darajada namoyon bo'lish ko'rsatgichlari ham har ikkala obyektida normal holatda ekanligini namoyon qildi. Lekin stressning namoyon bo'lish darajasi yuqorilik shkalasi bo'yicha BTGda o'rtacha 37,6 ballni va OSMGda esa, o'rtacha 26,4 ballni tashkil etdi. Tadqiqot doirasida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tadqiqot respondentlari o'rtasida yuqori ishonchli farqlar mavjud ekanligi kuzatildi (*p<0,05). Demak, BTGda OSMGga nisbatan stressli kechinmalarining yaqqol namoyon bo'lishi ustun ekanligini bildiradi. BTG respondentlari sport faoliyatida vujudga keladigan turli muammolar, o'zaro nizolar, qiyinchilik va to'siqlar, murakkab vaziyatlar va muvofaqqiyatsizliklar natijasida kelib chiquvchi stressorlar ularda bevosita stressli kechinmalarining namoyon bo'lishiga (o'zgarishiga) sabab bo'lishi mumkin. Bu shkala bo'yicha olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, BTGda kechadigan stressli holatlar bevosita ularning musobaqa oldi hissi ta'sirida vujudga kelishi tasdiqlandi.

Tadqiqotda Dj.Teylorning “Xavotirlanish darajasini aniqlash” metodikasi bo'yicha olingan natijalarni tahliliga o'tamiz, 2-jadvalga qarang.

Natijalar ko'rsatadiki, xavotirlanishning past va o'rta darajasida ishonchli farqlar ko'zga tashlanmadi. Lekin xavotirlanishning yuqori darajasida ishonchli farqlar ko'zga tashlandi*(P≤0,05). Buning asosiy sababi sifatida, Bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi BTG tarbiyalanuvchilarida xavotirlanish darajasi OSMG sportchilarira nisbatan yuqori ekanligini ularning hayotlaridagi musobaqalar hali

oldinda bo'lganligi bilan tushuntirish mumkin. xavotirlanish darajasi bo'yicha olingan natijalarni tahlil qilganimizda sinaluvchilarda xavotirlanish yuqori ekanligi kuzatildi. OSMG respondentlarining natijalari deyarli normal holatga yaqinligi bilan e'tiborga loyiq.

2-jadval

Dj. Teylorning "Xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi bo'yicha olingan natijalar, n=422

Xavotirlanish darajasi	Responentlar	n ¹ n ²	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish	t	p
Yuqori daraja	BTG	215	19,5	4,4	2,8	0,5
	OSMG	207	15,3	4,2		
O'rta daraja	BTG	215	13,8	2,2	2,9	0,15
	OSMG	207	14,5	2,1		
Past daraja	BTG	215	7,4	1,2	1,4	0,19
	OSMG	207	7,9	1,1		

Izoh: *(p≤0,05); **(p≤0,01); ***(p≤0,001).

Hozirgi kunda sport tashkilotlari tomonidan sportchilarning psixologik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratilayotganligi sababli, har bir sportchi bir yilda uch marotaba tibbiy va psixofiziologik ko'rikdan o'tishi talab qilinadi. Ularning holatlaridagi o'zgarishlar qayd qilib boriladi va o'zgarishlar mavjud bo'lgan sportchilar bilan alohida psixolog mutaxassislar ilmiy asoslangan dastur yordamida psixoprofilaktik yo'nalishda individual shug'ullanadilar.

3-jadval

Yu. Xaninning "Sportchilarning musobaqaga psixologik tayyorgarligini aniqlash" metodikasi natijalari (t-Student mezonini bo'yicha, n=422)

Maxsus shaxs xususiyatlari va stress faktoriga ta'sirchanlik shkalasi	Respondentlar	n ₁ n ₂	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish	t	p
Musobaqada emotsional barqarorlik	BTG	215	31,5	2,9	1,7	0,47
	OSMG	207	32,1	3,0		
Sportda o'zini boshqarish	BTG	215	15,7	2,1	1,5	0,51
	OSMG	207	13,9	3,8		
Musobaqa motivatsiyasi	BTG	215	23,3	2,7	1,2	0,10
	OSMG	207	22,6	3,7		
Stabillik-to'siqlarga bardoshlilik	BTG	215	32,4	2,9	2,9	0,13
	OSMG	207	35,1	3,4		
Stress faktorlariga ta'sirchanlik	BTG	215	43,1	3,4	2,5	0,05
	OSMG	207	35,1	2,4		

Tadqiqotda Yu. Xaninning "Sportchilarning musobaqaga psixik tayyorgarligini aniqlash" metodikasidan foydalandik. Bu metodika bizga sportchi shaxsining

musobaqa jarayonidagi individual xususiyatlari namoyon bo'lishi va stress faktorlariga ta'sirchanlik darajasi qanday ekanligini bilishga imkon beradi.

Respondentlarning sport faoliyatiga psixik tayyorgarlik holatini aniqlash maqsadida Yu. Xanning "Sportchilarning musobaqaga psixologik tayyorgarligini aniqlash" metodikasidan foydalanganimizda quyidagi natijalar ko'zga tashlandi. Sinaluvchilarda shaxsning sport faoliyatida namoyon bo'ladigan maxsus xususiyatlari musobaqada emotsional barqarorlik, sportda o'zini boshqarish, musobaqa motivatsiyasi, stabillik-to'siqlarga bardoshlilikni tahlil qilganimizda aytarli ishonchli farqlar ko'zga tashlanmadi. Bu esa, BTG va OSMG sinaluvchilarida ushbu xususiyatlar me'yorida rivojlanayotganidan dalolat beradi. Lekin stress faktorlariga ta'sirchanlik shkalasini tahlil qilganimizda respondentlar o'rtasida ishonchli farqlar mavjudligiga guvoh bo'ldik ($*p \leq 0,05$). Natijalar tahlil qilinganda, BTG sinaluvchilarda stress faktoriga ta'sirchanlik yuqori darajadali kuzatildi. OSMG (nazorat guruhi) sinaluvchilarida esa, stress faktoriga ta'sirchanlik yuqori ekanligi ko'zga tashlanmadi. Balki, oliy sport mahorti guruhidagi sportchilarni sport faoliyatida ko'p musobaqalarga ishtirok etgani va ularda sport psixologlari tomonidan tizimli dastur asosida ish olib borayotganligini muhim sabab sifatida ko'rsatib o'tish mumkin.

Tadqiqotda G.Ayzenkning "Individual-tipologik xususiyatlarni aniqlash" metodikasidan foydalanganildi.

4-jadval

G.Ayzenkning "Individual-tipologik xususiyatlarni aniqlash" metodikasi natijalari (t-Student mezon bo'yicha, n=422)

Shkala	Respondentlar	n ¹ n ²	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish	t	p
Ekstrovert- introvert	BTG	215	19,5	4,4	2,8	0,15
	OSMG	207	15,3	4,2		
Nevrotizm	BTG	215	13,8	2,2	2,9	0,05
	OSMG	207	14,5	2,1		

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, sportchilarda nevrozizm shkalasining qisman yuqori ekanligi qayd etildi. Bu holat jamoadagi o'zaro munosabatlarni izdan chiqishiga, bir-birini tez tushunaolmaslik, o'yinning yaxshi kechishi hamda muvaffaqiyatni ta'minlovchi muhim omillarga to'sqinlik qilishiga olib kelishi mumkin. Ekstraversiya-introversiya ko'rsatkichi bo'yicha respondentlarda sinaluvchilarning asosiy qismi introvert ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotimiz natijalarini tahlil qilish vaqtida guruhlarga nisbatan kuzatilgan farqlar ham tahlil qilishga urindik. Bunda respondentlar guruhlari o'rtasida ishonch darajasidagi farqlar mavjudligiga e'tiborni qaratdik. Empirik tahlillar shuni ko'rsatdiki, nevrozizm shkalasi bo'yicha sinaluvchilar o'rtasida ishonchli farqlar ($*p \leq 0,05$) mavjudligi kuzatildi, ya'ni BTGlar sinaluvchilarida nevrozizmning biroz yuqori ekanligi kuzatildi. Empirik tahlillar shuni ko'rsatdiki, BTG sinaluvchilari OSMG sinaluvchilariga nisbatan biroz asabiyroq, qo'zg'aluvchan, va betoqat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, ishonch darajasidagi farqlar mavjudligidan

dalolat beradi. Ekstroverziya va introverziya shkalasi bo'yicha ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi. Bu holat BTGLar va OSMG sportchilari orasida ekstravert ham introvert ham mavjudligi va unga xos sifat va xususiyatlar me'yorida rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotimiz doirasida olingan natijalarning o'zaro bog'liqlik darajalariga ham alohida e'tibor qaratildi. O'rganishlarimiz asnosida asosiy metodika sifatida Yu. Xanning "Sportchilarning musobaqaga psixologik tayyorgarligini aniqlash" metodikasi tanlab olindi. Ushbu metodikaning shkalalarini Dj.Teylorning "Xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi va G.Ayzenkning "Individual-tipologik xususiyatlarni aniqlash" metodikalari bilan o'zaro aloqadorligini ham o'rganishga alohida e'tibor qaratdik.

5-jadval

Yu. Xanning "Sportchilarning musobaqaga psixologik tayyorgarligini aniqlash", Dj.Teylorning "Xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi va G.Ayzenkning "Individual-tipologik xususiyatlarni aniqlash" metodikalari ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro korrelatsion bog'liqlik (n=422)

Shkalalar	Xavotirlani shning yuqori darajasi	Xavotirlani shning o'rta darajasi	Xavotirlani shning past darajasi	Ekstrovert	Introvert	Neyrotizm
Musobaqada emotsional barqarorlik	0,11	0,09	0,11	0,13	0,10	0,22*
Sportda o'zini boshqarish	0,14	0,03	0,27*	0,32*	0,24*	0,24*
Musobaqa motivatsiyasi	0,05	0,16	0,07	0,31*	0,12	0,42*
Stabillik-to'siqlarga bardoshlilik	-0,40*	0,08	0,15	0,23*	0,11	-0,03
Stress faktorlariga ta'sirchanlik	-0,21*	0,20	0,19	0,14	0,23*	0,22*

Olingan korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, stress faktoriga ta'sirchanlik shkalasi va introverziya ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy munosabat ($r=0.23$; $p>0.05$) kuzatilganligini guvohi bo'lamiz. Bunda o'zining boshqarish ortishi ekstroverziyaning ham oshib borishiga sabab bo'lar ekan. o'zining boshqarish va ichki barqarorlikka amal qilish ko'rsatkichi bo'yicha teskari bog'liqlik ($r=-0.32$; $p>0.05$) yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin. Inson qanchalik ichki barqarorlikka amal qilsa, ularda xavotirlanish darajasi past bo'lishi kuzatiladi. Sportda o'zini boshqarish shkalasi bo'yicha ijobiy ($r=0.27$; $p>0.05$) korrelyatsion munosabatlar ifodalanganligini kuzatish mumkin. Bu o'zini boshqarish qanchalik yuqori bo'lsa, o'zini baholash real va to'g'ri bo'lishidan dalolat beradi. Xavotirlik darajasi va belgilangan musobaqa motivatsiyasi o'rtasida ijobiy munosabat mavjudligi kuzatildi, bu sport faoliyatida qanchalik xavotirlik darajasi yuqori bo'lsa,

ularning gumon va shubxalanishlari ham shunchalik yuqori bo'lishi ifodalanganligini kuzatdik. Dj.Teylor testi natijalariga ko'ra yuqori xavotirlik darajasi va Yu.Xanin metodikasidagi stabillik-to'siqlarga bardoshlilik darajasi musbat munosabatda ($r=0.40$; $p>0.05$) ekanligini kuzatishimiz mumkin. Nevrotizm bilan musobaqa motivatsiyasi ko'rsatkichi o'rtasida salbiy korrelyatsion munosabat mavjudligi ($r=-0.42$; $p>0.05$) aniqlandi. Bu sportchilar o'z imkoniyatlarini qanchalik past baholasalar, xavotirlik holatining shunchalik oshishi mumkinligidan dalolat beradi.

Nevrotizm shkalasi va stress faktorlarga ta'sirchanlik shkalasi o'rtasida ham teskari aloqa ($r=-0.22$; $p>0.05$) yuz berganligi kuzatildi. Neyrotizm sportchilarda qanchalik yuqori bo'lsa, stress faktorlarga ta'sirchanlik ham yuqori bo'lishi aniqlandi. Neyrotizm shkalasi va musobaqada emotsional barqarorlik shkalasi bo'yicha ($r=-0.21$; $p>0.05$) teskari munosabat mavjud. Bunda neyrotizmning yuqori bo'lishi sinaluvchilarning shunchalik beqaror emotsiyada bo'lishlaridan dalolat beradi. Xavotirlanish shkalasi va sportda o'zini boshqarish shkalasi bo'yicha teskari korrelyatsiya ($r=-0.24$; $p>0.05$) kuzatildi. Sinaluvchilarda xavotirlanish kuchayishi bilan sportda o'zini boshqarish ko'rsatkichi kamayishi ya'ni o'zini boshqara olmaslik holati yuz berishiga olib keldi.

Xavotirlanishning yuqori ko'rsatkichi va stress faktorlarga ta'sirchanlik o'rtasida teskari korrelyatsiya ($r=-0.21$; $p>0.05$) mavjudligi kuzatildi. Bu ekstraversiyaning oshishi sinaluvchilarda stress faktorlarga ta'sirchanlik shkalasining kamayishiga olib kelishini ifodalaydi. Ekstroversiya ko'rsatkichi va musobaqa motivatsiyasi o'rtasida teskari korrelyatsion ($r=-0.31$; $p>0.05$) bog'liqlik sinaluvchilarda musobaqadan o'zini olib qochish ko'rsatkichining yuqoriligi, ularning intravert ekanligidan dalolat beradi. Introversiya ko'rsatkichi va sportda o'zini boshqarish ko'rsatkichi o'rtasida ijobiy korrelyatsion ($r=0.24$; $p>0.05$) bog'liqlik qonuniyati mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Demak, bunda o'zini boshqarish sinaluvchi sportchilarning ekstrovert ekanligidan dalolat beradi. Stabillik-to'siqlarga bardoshlilik va ekstroversiya ko'rsatkichi o'rtasida ham ijobiy bog'liqlik ($r=0.23$; $p>0.05$) mavjudligi namoyon bo'ldi

6-jadval

Yu. Xaninning "Sportchilarning musobaqaga psixologik tayyorgarligini aniqlash" metodikasi va "Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishi (IPS)" ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro korrelatsion bog'liqlik, n=422

Shkalalar	Stressli kechinmalar darajalari		
	yuqori	o'rta	past
Musobaqada emotsional barqarorlik	0,47*	-0,33*	0,11
Sportda o'zini boshqarish	0,14	0,03	0,18
Musobaqa motivatsiyasi	0,05	0,16	0,54*
Stabillik-to'siqlarga bardoshlilik	-0,15	0,08	0,15
Stress faktorlariga ta'sirchanlik	0,45*	0,20	0,19

Empirik natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, "Stress faktorlariga ta'sirchanlik" shkalasi "Stressli kechinmalarning" yuqori darajasi ($r=0,45$; $p\leq 0,05$), "Musobaqada emotsional barqarorlik" shkalasi "Stressli kechinmalarning" o'rta darajasi ($r=-0,33$; $p\leq 0,05$) bilan salbiy va "Stressli kechinmalarning" yuqori darajasi ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy, "Musobaqa motivatsiyasi" shkalasi "Stressli kechinmalarning" past darajasi ($r=0,54$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi aniqlandi.

Yuqorida sportchilarning xavotirlanish, shaxsning maxsus xususiyatlari va stress faktoriga ta'sirchanlik, ekstrovert-introvert va neyrotizm shkalasi musobaqa vaqtida sportchilarda jismoniy va psixologik tayyorgarlik holatini tahlil qilish jarayonida aynan metodikalardagi ko'rsatkichlar orasida korrelyatsion bog'liqlik qonuniyati mavjudmi yoki mavjud emasligi tahlil qilindi. Metodikalar yordamida qo'lga kiritilgan natijalarni ilmiy jihatdan baholaydigan bo'lsak, metodikalar o'rtasida ijobiy va teskari munosabatdagi korrelyatsion bog'liqlik qonuniyatlari mavjudligining guvohi bo'ldik. Metodikalar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik va uning tadqiqotlardagi ilmiy va amaliy ahamiyati ilovada batafsil berilgan.

Sport faoliyatida va sportchilar shaxsiga stressli kechinmalarni vujudga keltiruvchi stressorlarning bosqichlari va ta'siri aniqlandi. Tadqiqot natijalariga tayanib, sportchilar faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi stressorlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan integrativ blokli-chizma yaratildi.


Shunday ekan, sportchilar faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishda va sportchilarda stressorlarni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv va sub'ektiv sabablarni aniqlashda quyidagi blokli chizma muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqotlar davomida sportchi shaxsi va uning faoliyatiga ta'sir etuvchi stressorlarning ilmiy-nazariy tahlillari hamda empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, musobaqa va mashg'ulot jarayonida stressorlar o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmasligi aniqlandi

Dissertatsiyaning **"Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalarni korrektsiyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari"** deb nomlangan uchinchi bobida sportchilar faoliyatidagi stressli kechinmalarni oldini olishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik treninglar dasturi va uning samaradorligini ta'minlaydigan mezonlar, stressli kechinmalarning muvofaqiyatli yengishning ijtimoiy-psixologik modeli hamda salbiy emotsional holatni bartaraf etishga yo'naltirilgan koping-strategiyasi, yenguvchi mashqlar tizimi to'g'risida batafsil to'xtalib o'tiladi.

Tadqiqot maqsadini amalga oshirishda belgilangan vazifalarni bajarish uchun korrektsion bosqichda ma'lum bir shkalalar, ya'ni xavotirlanish, neyrotizm va stress faktorlarga ta'sirchanlik bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan (86 nafar) sportchilar bilan korrektsion treninglar amalga oshirildi.

Treningni asosiy maqsadi sportchilarda stressli kechinmalarni oldini olish, uni boshqarish va bartaraf etishni shakllantirishdan iborat edi. Shunga ko'ra, trening vazifasi sifatida quyidagilar belgilandi:

- xavotirlanish darajasini me'yorlashtirish;
- neyrotizm shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarni pasaytirish;
- stress faktoriga ta'sirchanlikni yo'qotish;
- psixokorreksion mashqlardan so'ng sinaluvchilardagi o'zgarishlarni qayd qilish va samaradorligini baholash.



1-rasm. Sportchilar faoliyatiga ta'sir etuvchi stressorlarning integrativ blokli chizmasi

